

## JISMONIY SHAXSLARGA “ONLAYN- MIKROQARZ” AJRATISH OMMAVIY OFERTA

Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi 2-qismida belgilab berilgan qoidalarga muvofiq “Garant bank” aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) jismoniy shaxslarga “TEZ VA QULAY ONLINE” ajratish Ommaviy Ofertasi (bundan buyon matnda “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzish bo‘yicha rasmiy taklifi, Ommaviy ofertasi hisoblanadi va jismoniy shaxslarga “TEZ VA QULAY ONLINE” ajratish shartnomasining shartlarini belgilab beradi.

Jismoniy shaxslarga “Onlayn-mikroqarz” berish bo‘yicha Oferta shartnomasi shartlarini diqqat bilan o‘qib chiqing va ushbu Ommaviy ofertaning barcha shartlari bilan tanishib chiqing.

Jismoniy shaxs tomonidan Bankning mobil ilovasida onlayn mikroqarz shartlarini tanlash bo‘yicha harakatlar bajarilishi, “Qabul qilish” matni ostidagi “Olish” tugmasini bosish va SMS-dan kodni kiritish orqali siz kredit shartlariga rozilik bildirasiz. Onlayn mikroqarzni onlayn rasmiylashtirish ekranida, shaxsni tekshirish Qarz oluvchi va “Garant bank” AJning mobil ilovasiga tasdiqlash kodini kiritish uning quyidagi shartlarga so‘zsiz roziligini (Ofertani qabul qilish) bildiradi.

“TEZ VA QULAY ONLINE” ajratish oferta shartnomasi u qabul qilingan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi va yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Jismoniy shaxs ushbu ommaviy oferta shartlarini qabul qilib, ushbu Ommaviy oferta shartlari uning qonuniy huquqlarini cheklamasligini tasdiqlaydi.

### 1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Ushbu shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

**“TEZ VA QULAY ONLINE”** - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan kredit ajratilishining tamoyillari asosida, milliy valyutada, jismoniy shaxslarga mobil ilova orqali, ushbu shartnomada belgilangan shartlar asosida Qarz oluvchiga taqdim etiladigan ma‘lum miqdordagi summa;

**Bank** – “Garant bank” aksiyadorlik jamiyati;

**Qarz oluvchi** – plastik karta orqali mikroqarz rasmiylashtirishga Bank mobil ilovasi orqali ariza taqdim etuvchi va Oferta shartnomasi asosida mikroqarz rasmiylashtiruvchi jismoniy shaxs;

**Ommaviy Oferta** - bank tomonidan tasdiqlangan, mobil ilova yoki bankning veb-sayti orqali keng ommaga e‘lon qilingan, unda ko‘rsatilgan shartlar asosida “TEZ VA QULAY ONLINE” ajratish haqida shartnoma tuzish bo‘yicha taklif;

**Oferta shartnomasi/Shartnoma** – “Bank” bilan “Qarz oluvchi” o‘rtasida mobil ilova orqali Bank tomonidan taqdim etiladigan ushbu Shartnomani tuzish to‘g‘risidagi Ommaviy ofertani qabul qilish orqali elektron tarzda tuziladigan, “Onlayn-mikroqarz” ajratish va uni qaytarish shartlarini o‘z ichiga olgan ushbu Jismoniy shaxslarga “Onlayn-mikroqarz” ajratish bo‘yicha Oferta shartnomasi;

**Mobil ilova** (keyingi o‘rinlarda “Ilova” deb yuritiladi) – bu mobil/elektron qurilmalar uchun Bankning dasturiy mahsuloti, jismoniy shaxslarga “TEZ VA QULAY ONLINE”lar olish, bir bank (plastik) kartasidan boshqasiga pul mablag‘larini onlayn tartibda o‘tkazish, shuningdek Plastik kartani, Hamyonni, Talab qilib olinguncha omonat hisobvarag‘ini onlayn tartibda (Internet tarmog‘i orqali) boshqarish bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi vosita.

**“FaceID” (Biometrik identifikatsiya axborot) tizimi** - jismoniy shaxslarni identifikatsiya qilish va autentifikatsiya qilish bo‘yicha so‘rovlarni qayta ishlash imkonini beruvchi axborot tizimi

**Autentifikatsiya** – Bank mijozi/Qarz oluvchi tomonidan e‘lon qilingan ma‘lumotlarning haqiqiylikini uning biometrik tasvirini (yuz geometriyasini) taqdim etish orqali tasdiqlash tartibi, shuningdek ushbu tasvirni oldindan belgilangan autentifikatsiya protokoliga muvofiq o‘zgartirish

jarayoni.

**Aksept** – Qarz oluvchining roziligini bildirishga, Bank tomonidan Mikroqarz olish uchun taklif qilingan shartlarni qabul qilishga yo‘naltirilgan harakatlari.

## 2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Onlayn-mikroqarz olish uchun Qarz oluvchi Mobil ilovada kreditning kerakli miqdori va muddatini tanlaydi, Bankdan o‘zi haqida kredit hisobotini olishga rozilik beradi va o‘zi haqidagi so‘ralgan ma‘lumotlarni to‘ldiradi, shundan so‘ng u arizani Mobil ilovaning PIN kodini kiritish orqali tasdiqlaydi.

2.2. Qarz oluvchi tomonidan kiritilgan ma‘lumotlarga, shuningdek Bankda mavjud bo‘lgan Qarz oluvchi to‘g‘risidagi boshqa ma‘lumotlarga, shu jumladan ochiq manbalardan olingan ma‘lumotlarga va Bankning uchinchi shaxslar bilan tuzilgan shartnomalari asosida Bank tomonidan uchinchi shaxslardan olingan ma‘lumotlarga asoslanib, Bank tomonidan avtomat ravishda Qarz oluvchining to‘lov qobiliyatini aniqlash hamda mikroqarz miqdorini belgilash uchun skoring o‘tkaziladi. Skoring natijasi ijobiy bo‘lganidan so‘ng, Qarz oluvchiga ushbu Oferta shartnomasini tuzishga Ommaviy oferta tanishib chiqish uchun taqdim etiladi.

2.3. Ushbu Shartnoma “Qarz oluvchi” tomonidan akseptlangandan boshlab “Bank” “Qarz oluvchi”ga, ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarda onlayn mikroqarz ajratadi. “Qarz oluvchi” esa undan kredit berishning umumiy qoidalariga rioya etgan holda foydalanadi va qaytaradi.

## 3. UMUMIY QOIDALAR

3.1. Ushbu oferta shartnoma kuchga kirganidan so‘ng “Bank” dasturiy ravishda “Qarz oluvchi”ga “TEZ VA QULAY ONLINE”dan foydalanish imkonini beruvchi ssuda hisobvarag‘ini ochadi va ushbu shartnomaning 3.2-bandiga asosan dasturiy ravishda Onlayn-mikroqarz miqdorini belgilaydi.

3.2. **“TEZ VA QULAY ONLINE” miqdori** – Qarz oluvchining daromadlari va kredit yukini inobatga olgan holda Onlayn-mikroqarz 300.000.00 (uch yuz ming) so‘mgacha miqdorida ajratiladi.

3.3. “TEZ VA QULAY ONLINE” muddati – 12 (o‘n ikki) oygacha;

3.4. Imtiyozli davri - 1 oygacha;

3.5. Imtiyozli davri mobaynida yillik foiz stavka – 1% miqdorida;

3.6. Muddati o‘tgan yillik foiz Stavka – 57% miqdorida.

3.7. “TEZ VA QULAY ONLINE” Qarz oluvchining Mobil ilovaga qo‘shilgan bank kartasiga yoki Qarz oluvchining Bankda ochilgan hisob raqamiga pul o‘tkazish yo‘li bilan beriladi va kredit ajratilgan paytdan boshlab berilgan hisoblanadi.

“TEZ VA QULAY ONLINE” bo‘yicha imtiyozli davri yakunlangach yillik foiz stavkasi 38% (o‘ttiz yetti) foiz miqdorida.

Foizlar Onlayn-mikroqarzning asosiy qarzni to‘liq qaytarilgan kunigacha hisoblanadi.

3.8. Qarz oluvchining “TEZ VA QULAY ONLINE” bo‘yicha majburiyatlari Qarz oluvchi tomonidan tanlangan sug‘urta korxonasi bilan tuzilgan Sug‘urta shartnomasiga asosan taqdim etilgan sug‘urta polisi “TEZ VA QULAY ONLINE”ning 125% miqdorida ta‘minlanadi. Sug‘urta mukofoti to‘lovi ajratilayotgan mikroqarz hisobidan amalga oshiriladi. Agarda sug‘urta mukofoti

to‘lovi mikroqarz mablag‘lari hisobidan amalga oshirilsa, mijoz tomonidan tanlangan rasmiylashtirilayotgan mikroqarz summasi sug‘urta mukofoti to‘lovi miqdoriga kam miqdorda mijozning plastik kartasiga o‘tkaziladi.

3.9. “Qarz oluvchi” mazkur shartnomaga asosan mikroqarzning asosiy qarz va unga hisoblangan foiz to‘lovlarini to‘lov jadvaliga asosan amalga oshirishi lozim.

3.10. “TEZ VA QULAY ONLINE” Qarz oluvchining mavjud kreditlari bo‘yicha muddati

o'tgan qarzdorliklari mavjud bo'lganda va Qarz oluvchining qarz yuki ko'rsatkichi me'yorida oshganda, majburiy ijro byurosi oldida majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorliklari mavjud bo'lganda, shuningdek, bank talablariga mos kelmaydigan salbiy kredit tarixiga ega bo'lganda ajratilmaydi.

3.11. "Qarz oluvchi" "TEZ VA QULAY ONLINE" va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida qaytarilmaganda Bank Onlayn-mikroqarz va u bo'yicha hisoblangan foizlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytarish choralarini ko'radi.

#### **4. ONLAYN-MIKROQARZNI QAYTARISH TARTIBI**

4.1 "TEZ VA QULAY ONLINE" va unga hisoblangan foizlarni qaytarish ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to'lov jadvaliga asosan har oy, mikroqarzdand foydalangan oyning keyingi oyidan boshlab amalga oshiriladi. "TEZ VA QULAY ONLINE"ning to'lov jadvali Qarz oluvchi uchun Mobil ilovada qayd etiladi.

4.2 Onlayn-mikroqarz bo'yicha qarzdorlik muddatidan avval qaytarilishi mumkin. "TEZ VA QULAY ONLINE"ni muddatidan avval qaytarilganligi uchun, Bank hech qanday qo'shimcha komissiya to'lovlari undirmaydi.

4.3 "TEZ VA QULAY ONLINE" va unga hisoblangan foizlar bo'yicha qarzdorlikni qaytarish Qarz oluvchining ish haqi, boshqa daromadlari va tushumlaridan o'tkazib borish orqali, naqd pul kirim qilish orqali, plastik kartalardan mablag'larni o'tkazish orqali, Qarz oluvchining "TEZ VA QULAY ONLINE" bo'yicha Bankdagi tranzit hisobvarag'iga o'tkazib berish orqali, avtomatik tarzda plastik kartalardan yechish yo'li orqali hamda infokiosklar, mobil ilovalar yoki boshqa elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi.

4.4 Qarz oluvchi tomonidan "TEZ VA QULAY ONLINE" bo'yicha qarzdorlikni qaytarish uchun yo'naltiradigan to'lovlari quyidagi ketma-ketlikda so'ndiriladi:

- a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- b) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- c) neustoyka (jarima, penya);
- d) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

4.5 Qarz oluvchi "TEZ VA QULAY ONLINE"ning joriy to'lovi uchun onlayn-mikroqarzni(qarzni) qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda Bank kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini Qarz oluvchining murojaatiga asosan "TEZ VA QULAY ONLINE"ning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltiradi hamda to'lov jadvalini qayta hisoblaydi.

4.6 Ushbu shartnomaga asosan Qarz oluvchi muddati o'tgan kredit qarzdorligi yuzaga kelsa Bank Qarz oluvchining kredit yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida Tomonlar ushbu shartnomala kelishilgan aloqa bog'lash usullaridan shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib Qarz oluvchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida so'ndirish jadvalini ilova qilgan holda xabar beradi.

#### **5. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

##### **5.1. Bankning majburiyatlari:**

5.1.1. Mazkur Oferta shartnomasi shartlariga asosan Qarz oluvchiga onlayn ravishda "TEZ VA QULAY ONLINE" ajratish;

5.1.2. "TEZ VA QULAY ONLINE" bo'yicha mablag'lar hisobini yuritish uchun Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'ini ochish;

5.1.3. Bank tomonidan Qarz oluvchi PK bo'yicha (PKdan foydalanayotgan paytda "PIN-kod"ni noto'g'ri terilishi oqibatida blokirovkaga tushgan holatlar bundan mustasno) amaliyotlar

to'xtatib qo'yilganda, Bank amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarz oluvchi uning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborishi shart;

5.1.4. Onlayn-mikroqarzni muddatidan oldin undirish to'g'risida Qarz oluvchini yozma ravishda xabardor qilish;

5.1.5. Bank tomonidan "TEZ VA QULAY ONLINE" bo'yicha muddati o'tgan qarzдорliklarni so'ndirish uchun Qarz oluvchi bank hisobvarag'i va (yoki) bank omonatidan (shu jumladan, bank kartalari bo'yicha) mablag'lar Qarz oluvchi topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, Bank ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarz oluvchi uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborishi shart.

5.1.6. Mazkur Shartnomaning 5.1.3. va 5.1.5-bandlarida nazarda tutilgan xabarnomalar (ma'lumotnomalar) Qarz oluvchi tomonidan Mobil ilovada ro'yxatdan o'tgan uyali aloqa raqamiga yuboriladi.

## **5.2. Bankning huquqlari:**

5.2.1 "TEZ VA QULAY ONLINE"dan foydalanish davrida doimiy monitoringni amalga oshirish. Monitoring davomida "TEZ VA QULAY ONLINE"ni qaytarish va unga hisoblangan foizlarni to'lash jadvaliga rioya qilinayotganligini nazorat qilish;

5.2.2 Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik holatlari va/yoki "TEZ VA QULAY ONLINE" va unga hisoblangan foizlarni qaytarish bo'yicha qarzдорliklar vujudga kelsa, o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagi harakatlardan istalganini qo'llash:

a) Qarz oluvchiga majburiyatlarni bajarish muddatini belgilagan holda majburiyatlarning bajarilmaganligi to'g'risida yozma xabar yuborish;

b) ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi qo'shimcha ravishda ta'minlanishini talab qilish;

v) Mazkur Shartnomada va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, Qarz oluvchi mikroqarzning hammasini yoki uning bir qismini muddatidan avval qaytarishni talab qilish;

g) Ushbu Shartnomaga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan boshqa har qanday huquqlardan foydalanish.

d) Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar tegishli ravishda bajarilishini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq, Bankka qarzni so'ndirish bo'yicha qarz oluvchining barcha banklardagi har qanday hisobvaraqlaridan har qanday valyutadagi pul mablag'larini akseptsiz yechib olish huquqini beradi (bundan davlat tomonidan fuqarolarga ajratiladigan ijtimoiy nafaqa va yordam mablag'lari, shu jumladan ijtimoiy karta hisobvarag'iga kelib tushadigan mablag'lar hisobidan undiruv mustasno).

5.2.3. Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarini bajarmagan holda va yuzaga kelgan sug'urta hodisasi bo'yicha Bank Qarz oluvchi Sug'urta korxonasi bilan tuzilgan Sug'urta shartnomasiga asosan taqdim qilingan kredit/mikroqarz qaytmaslik xatarini sug'urtalash polisi bo'yicha sug'urta korxonasidan sug'urta tovonini to'lashni talab qilish huquqiga ega.

5.2.4. Ushbu shartnomaga asosan Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlari Sug'urta korxonasi tomonidan qisman yoki to'liq qoplab berilganda, Sug'urta tovonini to'langan to'lov miqdori doirasida Bank ushbu shartnoma bo'yicha barcha huquqlarini Sug'urta korxonasiga o'tkazish huquqiga ega.

5.2.5. "Qarz oluvchi" tomonidan ushbu shartnoma shartlarining bajarilishi va uning shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni "Kredit axboroti tahliliy markazi" kredit byurosi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kredit Axboroti Davlat Reestriga yuborish.

## **5.3. Qarz oluvchining majburiyatlari:**

5.3.1. Onlayn-mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni Mobil ilovada qayd etilgan to'lov

jadvaliga asosan to'lash;

5.3.2. Onlayn-mikroqarzdin foydalanganlik uchun Bankka ushbu Shartnomada belgilangan miqdorda foizlar to'lash;

5.3.3. Yashash joyi, ish joyi, familiyasi, yoki ismidagi va mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir qiladigan boshqa holatlarning o'zgarganligi haqida 3 (uch) bank ish kuni ichida Bankka ma'lumotnoma taqdim etish;

5.3.4. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash uchun chiqib ketayotgan holda kreditning asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlarni muddatidan avval qaytarish;

5.3.5. Bankda va/yoki boshqa banklarda Qarz oluvchining plastik kartalariga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan barcha bank hisobvaraqlaridan mazkur Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining tegishli valyutadagi to'lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun zarur summani akseptsiz hisobdan chiqarish to'g'risida haqiqiy, chaqirib olinmaydigan va so'zsiz talab qo'yish huquqini/foydalanish huquqini Bankka taqdim etish;

5.3.6. Qarz oluvchi ushbu Shartnomani tuzishdan oldin sug'urtalashning asosiy shartlari va sug'urta badalini qoplash bo'yicha Bank talablari bilan tanishib chiqadi;

5.3.7. Onlayn-mikroqarz olish uchun Qarz oluvchi tomonidan bank mobil ilovasi orqali yo'llangan arizani Qarz oluvchi tomonidan yuborilganligini faktini tasdiqlash uchun, Qarz oluvchi uning shaxsiga doir ma'lumotlarga ishlov berishga Bankka roziligini hamda Qarz oluvchi nomiga uchinchi shaxslar tomonidan mikroqarz rasmiylashtirishni oldini olish maqsadida Qarz oluvchining yuzini rasmga olgan holda (yuz geometriyasini/ biometrik tasvirini) joriy qilingan "FaceID" tizimidan Davlat personallashtirish markazida autentifikatsiya (identifikatsiya)dan o'tkazishga rozilik beradi. Bunda Qarz oluvchi biladiki, agar Qarz oluvchi yuzining fotosurati bilan Qarz oluvchining shaxsi ushbu tizimdan autentifikatsiya (identifikatsiya) qilinmagan taqdirda, ya'ni qarz oluvchining shaxsi tasdiqlanmasa, Bank tomonidan Qarz oluvchiga mikroqarz rasmiylashtirish amaliyoti uchinchi shaxslar tomonidan olinishini oldini olish maqsadida bekor qilinadi.

5.3.8. Qarz oluvchi mazkur ofertani tasdiqlash orqali quyidagi takliflarni qabul qiladi:

- Bank faoliyati (bank mahsulotlari, aksiyalar va boshqa bank xizmatlari) to'g'risidagi ma'lumotlarni, shu jumladan reklamani olishga roziligini bildiradi;

- Qarz oluvchi Bankka har qanday aloqa vositalaridan foydalangan holda sms/elektron pochta/audio eshittirish/pochta jo'natish, axborot-kommunikatsiya xizmatlari orqali pochta jo'natmalarini, shuningdek boshqa turdagi pochta jo'natmalari va bildirishnomalarni jo'natish imkonini beradi;

- Davlat personallashtirish markazidan olingan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga hamda mikroqarz byurolari, soliq organlari uy-joy kommunal xizmatlari, uyali aloqa operatorlari, protsessing markazlari (Uzkard, Xumo va boshqalar) tijorat banklari va boshqa tashqi manbaalardan shaxsiy ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lumotlarni olishga roziligini bildiradi, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda:

pochta indekslarini kod bazasi bilan avtomatik tekshirish, Qarz oluvchi ma'lumotlarini aniqlashtirish (pochta aloqasi, elektron pochta orqali);

- Bu rozilik Qarz oluvchi tomonidan uning yozma roziligi sifatida tan olinadi, O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasiga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash uchun berilgan ma'lumotlar deb e'tirof etiladi.

5.3.9. Qarz oluvchi o'zining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga berilgan ushbu rozilik muddatsiz ekanligini va bu rozilikni bekor qilish uchun Bankka yozma ariza yuborish orqali bekor qilinishi mumkinligini biladi. Bekor qilish sanasi Bank faoliyati va (yoki) shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash to'g'risidagi reklamani olishga rozilikni bekor qilish to'g'risidagi yozma arizani Bankka olgan kun hisoblanadi.

5.3.10. Sug'urta mukofoti to'lovi mikroqarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilsa qarz

oluvchi bankda quyidagi amaliyotlar avtomat ravishda bajarishga ushbu ofertani akseptlash orqali rozilik beradi.

- Qarz oluvchi nomiga ssuda hisobvarag'ini ochish;
- Ushbu hisobvarag'dan sug'urta mukofotini to'lash.

5.3.11. Qarz oluvchiga u tomonidan so'ralgan onlayn-mikroqarz summasidan ortiq miqdorida mikroqarz mablag'lari o'tkazilgan taqdirda, Bank qarz oluvchining Bankda yoki boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlari va plastik kartalaridan aktseptstiz to'g'ridan-to'g'ri hisobdan chiqarishga haqli.

#### **5.4. Qarz oluvchining huquqlari:**

- 5.4.1. Ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlarda mikroqarz berilishini talab qilish;
- 5.4.2. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar Bankka to'liq qaytarilgan holda ushbu shartnomani muddatidan avval bekor qilish;
- 5.4.3. Ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq mazkur Shartnomaning 3-bo'limida belgilangan huquqlardan foydalanish;
- 5.4.4. Qarz oluvchi ushbu Oferta shartnomasini akseptlashdan oldin uning shartlari bilan tanishib chiqish;
- 5.4.5. Mikroqarzni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi (shu jumladan hisoblangan foizlar) to'g'risidagi xabarnomani olgan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida xabarnomada belgilangan to'lanmagan summani Bankka to'lash;
- 5.4.6. Bankdan kredit bo'yicha ma'lumot so'rash;
- 5.4.7. Mazkur Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab kredit mablag'lari ajratilgunga qadar hech qanday to'lovlarni amalga oshirmasdan kredit olishdan voz kechish;
- 5.4.8. Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lish.

### **6. MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HOLATLARI**

- 6.1. Ushbu bo'limda qayd etilgan hodisalarning har biri majburiyatlarning bajarmasligi holati hisoblanadi:
  - 6.1.1. Ushbu Shartnomada va ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan jadvalda belgilangan muddatlarda mikroqarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlar amalga oshirilmaganligi;
  - 6.1.2. Qarz oluvchi tomonidan mobil ilovaga qasddan bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan va haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarni kiritgan holda Bankni chalg'itish;
  - 6.1.3. Bankning xulosasiga ko'ra, kredit bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan Bankka taqdim etilgan ta'minotning qisman yoki to'liq o'z qiymatini yo'qotganligi va/yoki nohaqiqiy bo'lib qolganligi;
  - 6.1.4. Qarz oluvchining to'lovga qodirligi yomonlashganligi yoki ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning muntazam ravishda bajarilmasligiga olib keladigan aniq axborotning yashirilishi;
  - 6.1.5. Qarz oluvchining Bank oldidagi majburiyatlarining bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa hodisalar;
  - 6.1.6. Mazkur Shartnoma shartlarining buzilishi.

### **7. KREDIT QARZDORLIGINI MUDDATIDAN OLDIN UNDIRUVGA QARATISH**

7.1. Bank Qarz oluvchidan kredit summasini va boshqa tegishli to'lovlarni muddatidan oldin zudlik bilan to'lab berilishini talab qilish hamda muddatidan oldin undirish to'g'risidagi da'vo-talablari bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lishiga quyidagi holatlardan biri davom etayotgani asos bo'ladi:

a) Qarz oluvchi kredit bo'yicha o'z qarzlarini qaytarish qobiliyatini yo'qotishi yoki ularni to'lash muddatida qaytarmasligi va bu holat to'lash muddati buzilgan vaqtdan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun davom etsa;

b) Qarz oluvchi ushbu Kredit Shartnomasi bo'yicha va/yoki istalgan boshqa kelishuv bo'yicha, shu jumladan, garov, kafillik shartnomasi va boshqa bitimlar (shu jumladan, to'lov jadvali bo'yicha to'lovni amalga oshirish) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmayotganligi va bu holat Bank Qarz oluvchiga bajarmayotganlik holati haqida xabar bergandan so'ng 5 (besh) ish kuni davom etsa;

c) Qarz oluvchining (Kredit bo'yicha bo'lgan qarzdorlikdan tashqari) qandaydir qarzdorligi yuzasidan yoki Qarz oluvchining belgilangan muddatda to'lanmagan qandaydir qarzdorligi bo'lgan shartnomaga asosan belgilangan majburiyatlar bajarilmasa;

d) Kredit bo'yicha ta'minot yoki ta'minotning biron bir qismi ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarga nisbatan o'zi kuchini yo'qotsa;

e) davlat organlari Qarz oluvchiga tegishli mol-mulkning yoki boshqa aktivlarning barchasini yoki bir qismini, yoki Qarz oluvchining mol-mulkini yoki boshqa aktivlarini, yohud Qarz oluvchining faoliyatini tugatish uchun istalgan harakatni amalga oshirsa;

f) Qarz oluvchi yoki Qarz oluvchiga aloqador bo'lgan uchinchi shaxslarga nisbatan da'vo-talablari yoki ish yurituvchi qo'zg'atilishi va ularning natijasida Qarz oluvchining istalgan mol-mulki uning kreditorlari o'rtasida taqsimlanishi ehtimoli mavjud bo'lsa;

j) Qarz oluvchining mol-mulki boshqa majburiyatlarga asosan undiruvga qaratilsa yoki unga band solinsa.

## **8. MAXFIYLIK**

8.1. Bank Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni va amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni sir saqlashga kafolat beradi.

8.2. Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va amalga oshirilgan bank operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, sudlarga, hamda Banklararo kredit byurosi va boshqa kredit byurolariga hamda boshqa shaxslarga istisno tariqasida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan hollarda va o'rnatilgan tartibda taqdim etiladi.

## **9. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI**

9.1 Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi ushbu shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

## **10. NIZOLARNI HAL ETISH**

10.1. Ushbu Shartnoma shartlarini bajarish jarayonida vujudga keladigan kelishmovchiliklar Taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

10.2. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda va/yoki Qarz oluvchi nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq da'vogar joylashgan hududdagi sudga ko'rib chiqiladi.

## **11. FORS-MAJOR HOLATLARI**

11.1. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarilmaganlik Shartnoma tuzilgandan keyin, Taraflar oldindan ko'ra olishmagan, oqilona choralari bilan bartaraf etishi mumkin bo'lmagan favqulodda tusdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlarining oqibatlarini (fors-major) hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi.

11.2. Yengib bo'lmaydigan kuch holatlari vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan holda fors-major holatlar deb hisoblanadi.

## **12. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

12. 1. Ushbu Oferta shartnomasi uni Qarz oluvchi tomonidan Mobil ilova orqali akseptlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.2. Mazkur Oferta shartnomasi Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

## **13. ALOHIDA SHARTLAR**

13.1. Qarzdordan kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda bank kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini qarz oluvchining kreditining asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltiradi hamda kredit summasini qayta hisoblaydi.

13.2. Agar kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari yoki shartnomada ko'zda tutilgan o'zgaruvchan foiz stavkasi o'zgarishi, kredit shartnomasining shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilishi (shu jumladan, kreditning restrukturizatsiya qilinishi), qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to'lovlarining miqdorlari o'zgarganda bank kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirib, qarz oluvchiga taqdim qiladi.

Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

13.3. Qarz oluvchi-yuridik shaxsning xorijiy valyutada kredit olishga bo'lgan tanlovi va bunday tanlovga ko'ra xorijiy valyuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valyutada olingan kredit bo'yicha milliy valyutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar qarz oluvchining tavakkalchiligi hisoblanadi.

13.4. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra Qarz oluvchiga nisbatan ushbu shartnoma bo'yicha o'ziga tegishli bo'lgan huquqlardan istalganini qo'llashi yohud qo'llamasligi mumkin.

13.5. Bank tomonidan ushbu huquqlarning qo'llanmasligi yohud qisman qo'llanishi ushbu huquqlardan voz kechishni anglatmaydi va ular kelgusida istalgan vaqtda qo'llanishi mumkin.

13.6. Ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi Bankka shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur Shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan hamda qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa maqsadlarda o'zining yoki uning ta'sischilari va xodimlarining har qanday ma'lumotlariga ishlov berish va foydalanish huquqini beradi.

## **14. YAKUNIY SHARTLAR**

14.1. Mazkur shartnoma elektron tarzda mobil ilova orqali elektron tarzda (elektron hujjat) tuzilib, qarz oluvchi tomonidan mobil ilovada Oferta shartnomasini akseptlash orqali tasdiqlanadi va yozma ko'rinishidagi hujjatning yuridik kuchiga ega bo'ladi.

14.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha Taraflarning mazkur Shartnoma bilan tartibga solinmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.